

This is not registered version of Total Doc Converter

Bolta agronomning xop a'yo' b'og'i bo'lgan mehmon borki, shu bog'da tunab ketadi. Bir kuni rais bobo bitta xorijlikni agronomikaga boshlab keldi.

- Mehmonni zeriktirmaysiz-da, Boltavoy, - deb tayinladi.

- E, yonida tilmochi yo'q-ku, qandoq til topishaman?

- Bemalol so'zlashavering. O'zbekchani bilarkan, - dedi rais.

Dasturxon ustida suhbat quyuc bo'ldi. Bir vaqt agronomning ayoli sopol laganda xushbo'y palov keltirdi. Mehmonga ko'zi tushgach, odob bilan "Xush kelibsiz!" dedi.

U ketgach, mehmon havaslanib so'radi:

- Sizlarda uylanish masalalari qanday?

- Bizdami... Biz ayollarni qalin puliga sotib olamiz, - dedi agronom, so'ng uyi tomonga ishora qildi:

- Mana shu yangangizni ikki ming so'mga olganman!

Bolta agronomning ta'tilga kelgan talaba o'g'li choy opkirayotib otasining gapini eshitib qoldi. Otasiga yer ostidan norozi boqdi.

So'ng mehmonga jilmayib dedi:

- UZR. Otam o'ttiz yil oldingi gapni aytayotibdi. Hozir bunday emas.

O'g'li nima demoqchi bo'lganini agronom o'zicha tushundi. Gap ohangini biroz o'zgartirib, "xato"sini tuzatgan bo'ldi:

- Ha, ayollarimiz hozir juda qimmat turadi. O'zlariyam uncha-muncha pulni nazarlariga ilishmaydi-da!